MULTILATERAL INVESTMENT COURT – DOIMIY FAOLIYAT KO'RSATUVCHI INVESTITSIYA SUDI

Komilova Asalxon Shuhrat qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy tezis Multilateral Investment Court (MIC) institutini tashkil etish zarurati, amaldagi Investor-State Dispute Settlement (ISDS) tizimi bilan o'zaro munosabati hamda ushbu sud mexanizmining xalqaro investitsiya nizolarini hal qilishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

MIC modeli amaldagi ISDS tizimidagi kamchiliklar, jumladan, arbitrlarning mustaqilligi masalalari, qarorlarning nomuvofiqligi va protsessual xarajatlarning yuqoriligi kabi kamchiliklarga yechim sifatida taqdim etilgan. Olimlarning fikriga ko'ra doimiy sud tizimini joriy etilishi investitsiya nizolari bo'yicha yagona sud amaliyotini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu ilmiy maqolamizda MIC tizimining ISDS o'rnini bosish imkoniyati hamda xalqaro investitsiya huquqidagi o'rni tahlil qilinadi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda Multilateral Investment Court modeli nafaqat ISDS tizimining muqobil varianti sifatida, bundan tashqari davlat suvereniteti, arbitr tanlash erkinligi kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda MIC modelining doimiy sudyalar instituti taraf avtonomiyasiga ta'siri hamda ushbu tizimning qarorlar izchilligini ta'minlashdagi instutsional afzalliklari ilmiy asoslab berilgan.

Mazkur tadqiqotda qiyosiy-huquqiy metod, doctrinal tahlil metod va case-study metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijasiga ko'ra: Multilateral investment court ISDS tizimi o'rniga tashkil etilishi mumkin; bu tizim qarorlarning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi; doimiy sudyalar instituti arbitr tanlash erkinligini cheklaydi, lekin arbitrlarning mustaqilligini oshiradi. Lekin shuni ham aytib o'tish kerakki, bu tizimning qo'llanilishi ancha vaqtni talab qiladi.

Kalit so'zlar

Multilateral Investment Court, ISDS, investitsiya arbitraji, xalqaro investitsiya huquqi, investitsiya nizolari, BIT.

KIRISH

Xalqaro investitsiya huquqi tizimida investor va davlat o'rtasidagi nizolarni hal qilish mexanizmi sifatida ISDS tizimi 1960-yillardan buyon qo'llanib kelinmoqda. Bu tizim xorijiy investorlarga davlatga qarshi bevosita da'vo qilish imkonini beradi. Biroq so'nggi yillarda bu tizim bir nechta tanqidlarga uchramoqda, jumladan, qarorlarning nomuvofiqligi, protsessual xarajatlarning yuqoriligi va arbitrlarning tarafkashlik ehtimoli yangi bir tizim yaratilishilishiga olib kelmoqda. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida doimiy investitsiya sudini tashkil etish taklifi ilgari surilmoqda. Olimlarning fikriga ko'ra, MIC ikki bosqichli sud tizimi orqali qarorlarning yagona amaliyotini ta'minlashi mumkin.

Tadqiqotning asosiy maqsadi MICning huquqiy mohiyatini tahlil qilish , ISDS tizimini almashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari MIC institutining huquqiy tabiatini aniqlash, ISDS bilan solishtirib tahlil qilish, yangi modelning ustunlik va kamchiliklarini aniqlashdan iborat.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Tadqiqot obyekti MIC tizimining xalqaro investitsiya nizolarini hal qilishdagi roli.

Tadqiqot predmeti bu MIC instituti va uning tuzilishi, huquqiy asoslari.

Nazariy tahlil

Multilateral Investment Court – bu investor va davlat o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqadigan doimiy faoliyat yuritadigan xalqaro sud organi hisoblanadi. Ushbu sud ISDS tizimidagi ad hoc arbitraj institutini almashtirish maqsadida taklif etilgan. Olimlarning fikriga ko'ra, bu institut ikki darajali tizimdan birinchi instansiya va apellyatsiya sudidan iborat bo'ladi. Mazkur tizim investitsiya nizolarida yagona sud amaliyotini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot savolari:

1. Multilateral Investment Court amaldagi ISDS tizimini samarali tarzda almashtira oladimi?
2. MICda doimiy sudyalar tizimi tomonlarning arbitrlarni tanlash huquqiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Apellyatsiya institutining mavjudligi "Arbitr qarorining yakuniyligi" qoidasini cheklanishiga olib kelmaydimi?

So'nggi o'n yilliklarda xalqaro investitsiya huquqi tizimi sezilarli darajada rivojlandi. Ikki tomonlama investitsiya bitimlari va erkin savdo kelishuvlari orqali xorijiy investorlar va davlat o'rtasidagi investitsiyaviy nizolarni hal qilish uchun Investor- State Dispute Settlement (ISDS) mexanizmi keng qo'llanila boshlandi. Ushbu institute haqida gapirishda oldin biz albatta investitsiya, investitsiyaviy nizo atamalarini sharhlab o'tishimiz lozim.

Investitsiya bu investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchilik asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro huquqdagi **investitsiyaviy nizo** deganda davlat va chet el investorlari o'rtasida ikkinchisining birinchisining hududidagi investitsiyalari bilan bog'liq huquqiy nizo tushuniladi. Xalqaro investitsiyaviy nizo bu bir davlatning xorijiy investori va investitsiya qabul qilgan ikkinchi davlat o'rtasida yuzaga keladigan huquqiy kelishmovchilikdir. Nizolarning asosiy sababi ekspropratsiya, adolatsiz munosabat, mezbon davlat qonunchiligining o'zgarishi va shartnoma shartlarining buzilishi mumkin.

Yuqoridagi savollarni tahlil qiladigan bo'lsak, o'zi nima uchun ISDS tizimini o'rniga yangi institut tashkil etish fikri paydo bo'lgan? Bunga bir nechta sabablar mavjud bo'lib ular ISDS tizimidagi qabul qilingan qarorlarning **o'zaro zidligi, shaffoflikning yetarli emasligi, yuqori arbitraj xarajatlari va bu qarorlarning davlat suverebitetiga ta'siri** bo'lishi mumkin. Ko'plab olimlarning fikriga ko'ra ushbu institutsional va ad hoc institutlari chiqargan **qarorlarning nomuvofiqligi** va **yuqori xarajatlar** asosiy muammolardan biri sifatida ko'rsatiladi. Bundan tashqari **hakamlarning xolis emasligi**, "**double - hatting**" muammosi borligi ham ta'kidlab o'tilgan. Arbitrlarning taraflar tomonidan tayinlanishi ularning mustaqilligiga putur yetkazadi va arbitrlar kelajakda yana tayinlanish ilinjida investorlar foydasiga qaror chiqarishi mumkin degan shubhalar mavjud. "Double- hatting" bu bir shaxsning bir vaqtning o'zida ham arbitr ham boshqa ishda advokat sifatida qatnashishi manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarishi mumkin.

Amaldagi ISDS investor va davlat o'rtasidagi nizolarni hal qilish rejimi doirasida hakamlar (arbitrlar) taraflar tomonidan tayinlanadi. Ushbu modelning mohiyatidan kelib chiqqan holda, odil sudlovni amalga oshiruvchilarning xolisligi va mustaqilligi yuzasidan shubhalar mavjud. Bir

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

tomondan, taraflar tomonidan tayinlangan arbitr o'zini tayinlagan tarafga yon bosishi mumkin degan xavf mavjudligi ta'kidlagan. Biroq, investitsiya arbitraj konteksida boshqa bir xavotir: investitsiya shartnomalariga faqat investorlar da'vo qo'zg'atishi mumkin bo'lgani sababli , hakamlar kelajakda yana tayinlanish imkoniyatini ta'minlash maqsadida ko'proq investor foydasiga qaror chiqarishga moyil bo'lishlari mumkin.

Davlatning tartibga solish huquqining cheklanishi (right to regulate) amaldagi ISDS mexanizmining almashtirish zaruratini keltirib chiqardi. ISDS tizimi hukumatlarning jamoat manfaatlarini ko'zlab tartibga solish huquqi bilan muvozanatni saqlamasdan, faqatgina investorlar manfaatlarini hisobga olgani tanqidga uchragan. CETA (Kanada va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi keng qamrovli iqtisodiy va savdo bitimi) shartnoma qoidalariga davlatlarning tartibga solish huquqini aniq va ravshan tarzda kiritgan. Bu narsa asosan investorlar manfaatlarini himoya qiluvchi assimetrik himoya rejimining (asymmetric protection regime) shakllanishiga xizmat qilgan. Assimetrik himoya rejimi tartibga solishning susayishi (regulatory chill) ga sabab bo'lishi mumkin.

ISDS tizimi davlatlarning **sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va xavfsizlik** kabi ijtimoiy muhim sohalarda yangi qonunlarni qabul qilishini cheklamoqda. Masalan, Philip Morris kompaniyasining tamaki mahsulotlari qadog'iga doir qonunlar uchun Avstraliya va Urugvayga qarshi da'volari davlatlar o'rtasida tartibga solish qo'rquvi "regulatory chill" ni yuzaga keltirdi.

ICSID tizimida investorlar davlatlarni xalqaro arbitrajga berib o'z investitsiyalariga zarar yetkazgan deb hisoblangan qonun yoki tartibga solish choralari ustidan shikoyat qilishi mumkin. Natijada davlatlar ko'p xarajatli va uzoq muddatli sud jarayonlaridan qo'rqib, foydali va zarur bo'lgan ijtimoiy qonunlarni (tamaki nazorati, ekologik standartlar, xavfsizlik choralari) qabul qilishdan yoki kuchaytirishdan voz kechishi yoki kechiktirishi mumkin. Ushbu caseda Urugvay tamaki nazorati bo'yicha qonunlar qabul qildi: sigaret qutilarida 80% sog'liq haqida ogohlantirish va bitta brend uchun faqat bitta turdagi qadoq (single presentation requirement) belgilangan. Philip Morris bu choralar o'z investitsiyasini ekspropratsiya qilgan va adolatli munosabat huquqini buzgan deb da'vo qildi. Bu case Urugvay foydasiga hal bo'lgan bo'lsa ham, millionlab dollar sarf qilishiga sabab bo'lgan. Bu casening regulatory chillga bog'liqligi to'g'ridan to'g'ri qo'rqitish effekti borligida chuni bu case davom etayotgan paytda boshqa davlatlar masalan, Yangi Zelandiya, Nambiya, Togo, Uganda va shunga o'xshash davlatlar tamaki nazorati qonunlarini kechiktirdi va to'xtatib turdi. ularda ham Philip Morris kabi ish ochilishi mumkin degan qo'rquv bo'lgan.

Shu sababli Yevropa Ittifoqi va boshqa davlatlar xalqaro investitsiya nizolarini hal qilish uchun doimiy sud tizimi – Multilateral Investment Court ni tashkil etish g'oyasini ilgari surdilar.

Mavjud ICSID va MIC tizimlari qanday bog'liq bo'lsishi mumkin?

Davlatlar va boshqa davlatlar fuqarolari o'rtasidagi investitsiya nizolarini hal qilish to'g'risidagi konvensiya (Convention on the Settlement of Investment Disputes between States and Nationals of other States) 1966-yil 14-oktabrda kuchga kirdi. Ushbu konvesnsiya asosida International Centre for Settlement of Investment Disputes tashkil etilgan. ICSID qabul qiluvchi davlatlar va boshqa davlatlardan kelgan xorijiy investorlar o'rtasidagi nizolarni arbitraj hamda yarashuv yo'li bilan hal qilishni, xususiy tomonlar xalqaro majburiyatlarni buzganlik uchun davlatlarga da'vo qo'zg'atolmaydigan xalqaro huquqda mavjud bo'lgan bo'shliqni bartaraf etishni nazarda tutadi.

ICSIDda yillar davomida Argentina eng ko'p javobgar davlat bo'lib kelgan, ko'pgina nizolar BITbo'yicha olib borilgan hamda nizolar uchun eng keng tarqalgan sektor neft va gaz masalasi bo'lgan. ICSID bir nechta asosiy xususiyatlarga ega hisoblanadi. ICSID konvensiyasining 25-

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

moddasiga binoan, ICSID yurisdiksiyasi bilan ahdlashuvchi davlat (konvensiyani imzolagan) va boshqa ahdlashuvchi davlat fuqarosi o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri investitsiyalardan kelib chiqadigan har qanday huquqiy nizolarga taalluqlidir.

MIC - investorlar va davlat o'rtasidagi nizolarni hal qilishning ushbu yangi rejimi tomonlar tribunal a'zolarini tanlashi mumkin bo'lgan davlat tomonidan tayinlangan hakamlarning reyestridan iborat. bu shaxslar nizolashuvchi tomonlar tarafidan emas davlatlar tomonidan tayinlanganligi sababli ular hakamlar emas, balki sudyalar ko'rinishiga ega bo'lib, an'anaviy investor-davlat nizolarini hal qilish arbitrajida yetishmayotgan jarayonga ma'lum darajada qonuniylik beradi. bundan tashqari, barcha sudyalar uchun belgilangan xulq-atvor kodeksi mavjud bo'lib, u hech qachon boshqa hujjatlarda ko'rilmagan va bu avvalgi jarayonlarda bu borada halollik yo'qligi xavotirini yana bir bor aks ettiradi. yangi tizim sud qaroridan tortib to ishtirokchi davlatlar tomonidan tayinlangan doimiy sudyalar organigacha apellyatsiya tartibini o'rnatadi.

Asosiy farqlar:

Sudyalarni tayinlash tartibi- ICSID konvensiyasining 37-moddasiga muvofiq tribunal yakka tartibdagi hakamdan yoki tomonlarning kelishuviga ko'ra tayinlangan har qanday teng bo'lmagan miqdordagi hakamlardan iborat bo'ladi. Agar tomonlar hakamlar soni va ularni tayinlash tartibi bo'yicha kelisha olmasalar, tribunal uchta hakamdan iborat bo'ladi, har bir tomon bittadan hakam va tomonlarning kelishuvi bilan tayinlanadigan tribunal prezidenti bo'lgan uchinchi hakamdan iborat bo'ladi. taklif etilayotgan yangi tizimda esa sudyalar davlatlar tomonidan oldindan, uzoq muddatga tayinlanadi. Tomonlar biror bir aniq nizo uchun sudyani tanlash huquqiga ega bo'lmaydi, sudyalar ishga tasodifiy yoki rotatsiya asosida biriktiriladi. Ko'p tomonlama investitsiya sudi to'g'risidagi loyihaga ko'ra ko'p tomonlama investitsiya sudining har bir a'zosi o'zi tomonidan o'tkaziladigan ichki saralash tartib-taomili orqali, MIC sudyaligiga saylanish uchun ko'rib chiqiladigan nomzodlar ro'yxatiga nomzodlarni taqdim etish huquqiga ega.MIC prezidenti alohida sudyalarni sud palatalariga taqsimlaydi va muayyan nizolarni ushbu palatalarga biriktiradi.Prezident sudyalarni palatalarga va ishlarga taqsimlashda quyidagi mezonlarni hisobga olishi kerak: gender va mintaqaviy xilma-xillik, huquqiy tizimlar va mavzu bo'yicha tajribaning xilma-xilligi va yalpi organ tomonidan qabul qilingan protsedura qoidalaridagi ko'rsatmalar.

Apellyatsiya mexanizmi mavjudligi, davlat yoki investor chiqarilgan qaror yuzasidan apellyatsiya organiga murojaat qilishi mumkin bo'ladi.

Multilateral Investment Court amaldagi Investor-State Dispute Settlement tizimini to'liq almashtira oladigan mexanizm sifatida taqdim etilayotgan bo'lsa ham, bu tizim qarib o'n yildan beri tashkil etilgani yo'q. Bunga davlatlarning amaldagi ICSID tizimidan ko'ngli to'qligi, yangi mexanizmga ishonchning yo'qligi sababli qo'llab quvvatlamayotganligi bo'lishi mumkin.MIC modeli mavjud muammolarni doimiy sudyalar institute, ikki bosqichli sud tizimi, apellyastisya mexanizmi, shaffof sudlov orqali bartaraf etishi mumkin. Draft Statute loyihasida MIC birinchi instansiya va apellyatsiya sudi orqali qarorlar bir xilligini ta'minlashi ko'zda tutilgan. Ayrim olimlarning fikriga ko'ra MIC ISDS tizimini to'liq almashtira olmaydi, uni ayrim qisimlarini o'zgartirishi mumkin degan fikrlar ilgari suriladi, bunga sabab qilib, BITlar sonining ko'pligi va ijro mexanizmining to'liq shakllanmaganligini keltirishadi.

Xulosa qilib aytganda, MIC qisqa muddatda ISDSni to'liq almashtira olmaydi, lekin kelajakda bosqichma-bosqich egallashi mumkinligi tahmin qilinadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ISDS tizimining muhim xususiyatlaridan biri taraflarning arbitr tanlash erkinligidir. Agar arbitraj tarkibi yakka tartibdagi arbitrni o'z ichiga olsa, tomonlarga yakka tartibdagi arbitrajni birgalikda tayinlash uchun o'n kunlik muddat beriladi. Agar tomonlar belgilangan muddatda arbitrni tayinlashni kelisha olishmasa, kengash tomonidan yagona arbitr tayinlanishi kerak. Agar arbitraj tarkibi bir nechta arbitrlarni o'z ichiga olsa, tomonlarning har biri teng miqdordagi arbitrlarni tayinlashi kerak va arbitraj tarkibi rais arbitrni tayinlaydi. Agar tomon belgilangan muddatda arbitrlarni tayinlamasa, arbitrlar kengash tomonidan tayinlanadi. Turli davlatlar o'rtasidagi nizoda, yakka tartibdagi arbitr yoki arbitraj tarkibi raisi, agar tomonlar boshqacha kelishuvga erishmagan bo'lsa yoki kengash buni maqul deb topmagan bo'lsa, har bir tarafdan boshqa mamlakat fuqarosi bo'lishi kerak.

Yuqorida aytib o'tilganidek, amaldagi arbitraj institutida taraflar bittadan arbitr tanlashadi va arbitrlar uchinchi arbitrni tayinlaydi. MIC modelida esa bu yondashuv o'zgaradi. Sudyalar oldindan tayinlangan bo'ladi va ishlar sud palatalari o'rtasida taqsimlanadi.

Tadqiqot savollaridan biri MICda doimiy sudyalar tizimi tomonlarning arbitr tanlash huququqiga qanday ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq. MIC modelida sudyalar oldindan tayinlangan bo'ladi va ishlar muayyan protsedura asosida taqsimlanadi. Draft Statuteda nizolar palatalarga taqsimlanishi, apellyatsiya sudi uchun alohida sudyalar ajratilishi nazarda tutilgan. Bunda taraf avtonomiyasi qisqaradi. Biroq ushbu cheklovning o'rniga tizim sudyalarning mustaqilligi va xolisligini oshirishga yordam beradi. Bu holat "party autonomy"dan "institutional legitimacy" ga o'tish deb qaraladi.

Qarorlarning yakuniyligi (finality of awards) prinsipi arbitr tribunal o'z qarorlarini chiqarishi bilan u res judicata kuchiga ega bo'lishini, tomonlar qarorni faqat juda tor asoslarda (ICSID Konvensiyasi, 52-modda; UNCITRAL qoidalari, 34-modda) bekor qila oladi. Muhokama ko'rinishidagi merits bo'yicha qayta ko'rib chiqish mavjud emas. Bu prinsip arbitrajning tezlik, tejamkorlik va tomonlar avtonomiyasi tamoyillaridan kelib chiqadi. Taklif etilayotgan Multilateral Investment Court ikki bosqichdan iborat. Birinchi instansiya sudida asosiy ko'rib chiqiladi, apellyatsiya organida huquqiy xatolar va aniq faktologik xatolar ko'rib chiqiladi. Bunda huquqni noto'g'ri qo'llash, dalillarni noto'g'ri baholaganlik va protsessual buzilishlar ko'rib chiqiladi. Apellyatsiya bosqichining qo'shilishi yakuniy qaror chiqarilgunga qadar yana bir bosqich qo'shilishiga, vaqt va xarajatlarning oshishiga olib keladi.

Apellyatsiya arbitrajni sudlashuvga aylantiradi, milliy sudlardan farqi qolmaydi va tomonlar avtonomiyasi buziladi deyishimiz mumkin. Biroq, MIC umuman arbitraj emas, u doimiy xalqaro investitsion sud sifatida tashkil etiladi. Shuning uchun arbitraj doktrinasi mezonlarini unga to'liq qo'llash no'to'g'ri deb hisoblanadi.

Xulosalar:

1. Amaldagi investor- davlat nizolarini hal qilish (ISDS) tizimi qonuniyligi bo'yicha, hakamlarning xolisligi borasida shubxalar, qarorlarning bir-biriga zidligi va davlatlarning ijtimoiy muhim sohalarni tartibga solish huquqiga (right to regulate) tahdidlar ushbu tizimni yangilash va o'rniga MICni tashkil etishni taqozo etmoqda.
2. MIC loyihasi vaqtinchalik arbitrajdan doimiy faoliyat yurituvchi sud tizimiga o'tishnin anglatadi. Bu tizim professional sudyalar, ikki bosqichli mexanizm va shaffoflik qoidalari orqali xalqaro investitsiya huquqida nizolarni bartaraf qilishdagi eng samarali instituti sifatida qaralmoqda.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

3. Doimiy sud apparati va sudyalariga ega bo'lsih har bir alohida nizo uchun ketadigan yuqori xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishi kutilmoqda.

Amaldagi ISDS tizimi o'zining vaqtinchaligi, hakamlarning xolis emasligi ("double-hatting" muammosi) va o'ta yuqori xarajatlari sababli turli xil e'tirozlarga sabab bo'lmoqda. Bunga muqobil sifatida taklif etilayotgan ko'p tomonlama investitsiya sudi o'zining doimiy professional sudyalari, apellyatsiya instansiyasi va markazlashgan byudjeti orqali xarajatlarni kamaytirib, qarorlarning barqarorligi va yagonaligini ta'minlashga xizmat qiladi. Garchand bu yangi tizim investorlarning bevosita o'zlari arbitr tanlash (party autonomy) huquqini cheklasada, u odil sudlovning mustaqilligini oshirish orqali kelajakda xalqaro investitsiya nizolarini hal qilishning eng samarali va adolatli mexanizmiga aylanishi kutilmoqda.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.